

**“AQLLI KITOBXON DASTURI” YORDAMIDA KITOBXONLIK
SALOHIYATINI OSHIRISH**

Zaripov Zaxriddin Zafar o`g`li, Shirinboyev Xudoynazarbek Tolib o`g`li

Tursunov Abdujabbor Olim o`gli, Tuxliyev Bekzod Sohibjon o`g`li

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o‘qimoqqa barobar bo‘lsin. Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo‘lsin.

Kalit so`zlar: kitob, talaba, ta`lim, elektron, bilim, zehn, adabiyot, ma`naviyat, kitobxon,

Kitobni sevmoq-jamiyatni sevmoq demak. Amir Temur bobomizning bir jumlesi bod-bod qulqoqqa chalinadi, “Bir tadbirli kishi, ming tadbirsiz kishidan afzal!”. Ushbu hikmatli so`zni jamiyatdagi barcha islohotlarga mos kelishi bizni hayratga soladi. Zero, kitobning ta`lim-tarbiya, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o`rni beqiyos. Kitob o`qigan inson borliqdan har dam xabardor, o`qib uqmagan inson esa har gal yarador. Kitobning sehri, cheksiz mehri, iliq tafti-yu, zehni siz-u bizni har safar maftun aylaydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi farmoyishiga muvofiq, mamlakatimizdagi vazirliklar, ta`lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda kitobxonlik bo`yicha ko`plab tadbirlar o`tbirlar o`tkazilgani yoshlarni yanada kitobga bo`lgan mehrini oshirishga sabab bo`ldi. Xalq orasida kitobni e`zozlash, unga suvgaga tashna sahro kabi oshiqish qanchalik baxthli hol. “Inson uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo`q”, – deydi O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi a`lochisi Obiddin Mahmudov.

Yurtboshimiz tomonidan imzolangan dasturdan quyidagilarni sanab o`tish maqsadga muofiq:

-bolalarga moljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qollab-quvvatlash;

-ixtisoslashtirilgan kitob dokonlari faoliyatini rivojlantirish;

-jahon adabiyotining eng sara namunalarini o`zbek tiliga tarjima qilish

-tashkilot va muassasalarning “Ma`naviyat xonalari”ni tashkil e`tish

-kitobsevar yoshlarni ragbatlantirish tizimini takomillashtirish;

-elektron o`quv qurilmalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumta`lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy oquv

yurtlari uchun darsliklar, o`quv qo`llanmalarni, o`quv-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish, bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo`lga qo`yish bo`yicha takliflarni amalga oshirishga qaratildi. Bu kabi imkoniyatlar talaba-yoshlar balki ularning ota-onasi uchun ham quvonchli xabarga aylandi.

Tushkun kayfiyatdan tez va oson qutulish yo`li bu kitob mutolaasi bilan shug`ullanmoq. Hayotni hayolga, orzuni amalga aylantiruvchi ham kitobdir. Ta`sirchan kishi oddiy holatlarda ham o`zini yo`qotib qo`yishi bu uning kitob mehridan xabarsiz ekanligidan dalolat beradi. Prezidentimizning “kitob o`qigan insondan yomonlik chiqmaydi” degan so`zlari kitobning naqadir aziz va yoshlarimizni aqliy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini yoritib beradi. Yoshlarni ma`naviy o`sib komillikga erishishi uchun kitobning o`rni beqiyos.

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targibotchilar ortasida “Eng kitobxon muktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko`rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o`tkazish yo`lga qo`yildi. Eng muhimi, yoshlar kitob – insonning eng yaqin do`sti va kelajak poydevori ekanini yanada chuqrurq anglab yetishdi.

Biz taklif e`tmoqchi bo`lgan innovatsion g`oyamiz yoshlarni kitobxonlik salohiyatini rivojlantirish bo`yicha bo`lib, bu xuddi internet saytlariga o`xshaydi. Farqi shundaki, faqat talaba uchun o`zining shaxsiy kitoblar jamlanmasidan iborat bo`ladi. Misol uchun bir talaba 4 yillik o`quv jarayonida 100 ta kitobdan foydalanadigan bo`lsa biz shuni elektron shaklida bir bazaga kitoblarni joylashtiramiz. Unga talabaning shaxsiy login parol orqali kirib dasturdan foydalanish imkoniyati beriladi. Talabaning o`zi shu kiritilgan kitoblardan tashqari unga qo`shimcha yana adabiyotlarni taklif etishi mumkin bo`ladi. Bizning aqlii dasturimiz nimaga qodir deysizmi?

Bu dastur oddiy saytlardan farq qiladi, talabaning kitob o`qish jarayonida uning o`qigan kitobini betigacha eslab qoladi, va buni nazorat qiladi, talaba dasturdan chiqib qayta kirganda u qanday kitob o`qiyotganini qaysi betida bo`lgani haqida ekranda ma`lumot paydo bo`ladi va talaba o`qiyotgan kitobini o`qishda davom etadi. Buning afzalligi shundan iboratki dastur kitob o`qib bo`lgandan so`ng undan shu kitob haqida test o`tkazish taklifini beradi va bu orqali bilimini mustahkamlaydi. Kelajakda bardavom foydalanish imkonini beradi ya`ni talaba umri davomida shbu dasturdan foydalanishi va unga yangidan yangi adabiyotlarni kiritib shaxsiy bazasini yanada kengaytirishi mumkin.

Dastur har doim OTMda ma`naviyat bo`limi tomonidan nazorat qilib turiladi. Ilg`or talabalarni rag`bartlantirish maqsadida “Eng yaxshi kitobxon talaba” tanlovinini tashkil etish hamda munosib nomzodlarni bir o`quv yili mobaynida o`z mutaxassisligidan kelib chiqqan holda taqdirlashni tashkil etish yo`lga qo`yiladi.

Elektron kutubxona talaba yoki o`quvchilarga yaqin hamroh bo`la oladi. Qolaversa, mustaqil izlanuvchilarga ham shaxsiy login parol berish orqali kitobsevarlar safini yanada orttirish mumkin.

Kitob deydi: - “Men bilan,
Do`s slashing, bo`lur foyda.
O`rgansangiz qunt bilan,
Asqotaman har joyda”.

Kitob insonning tafakkurini charhlovchi noyob quroldir. Kitoblar bilan yaqindan tanishgan sayin inson ko`p narsalarga o`zgacha nigoh bilan nazar solishni boshlaydi. Kitob doimo insonlar uchun yaqin do`st, hamroh, dono maslahatchi bo`lib kelgan. Ba`zi kitoblarni mutolaa qilganda inson o`zi uchun hayotni yangidan kashf etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 12-yanvar kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi farmoyishi.
- 2.** O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
- 3.** O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini.
- 4.** O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2025-yillarga mo`ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori.